



ANCIENT PUNISHMENTS FOR JUVENILE THEFT

Anvar Nazarov

Lawyer of "Law and Case" law office

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: ranonazarova741@gmail.com

ABOUT ARTICLE

Key words: theft, minors, child theft, kleptomania, punishment, disciplinary measures, piracy, laws of Hammurabi.

Received: 10.11.24

Accepted: 12.11.24

Published: 14.11.24

Abstract: Juvenile delinquency requires the organization of preventive processes based on measures based on a unique approach. Children who have committed crimes are more often used educational methods than punitive measures, which expressed by the slowness of the process of cognitively understanding the origin and consequences of the crime. Theft is the most common crime committed by minors. The article analyzes the historical punishments for theft, the psychological, pedagogical and legal aspects of child theft.

VOYAGA YETMAGANLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN O'G'RILIK UCHUN QADIMGI DAVRDAGI JAZOLAR

Anvar Nazarov

"Law and Case" advokatlik byurosi advokati

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: ranonazarova741@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: o'g'rilik, voyaga yetmaganlar, bolalar o'g'riligi, kleptomaniya, jazo, intizomiy choralar, qaroqchilik, Xammurabi qonunlari.

Annotatsiya: Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi o'ziga xos yondashuvga asoslangan chora-tadbirlar asosida profilaktik jarayonlarni tashkil etishni talab etadi. Jinoyat sodir etgan bolalarga jazolash choralaridan ko'ra tarbiyalash usullari ko'proq qo'llaniladi, bu ularda jinoyatning kelib chiqishi va oqibatlarini kognitiv tarzda anglash jarayonining sustligi bilan ifodalanadi. O'g'rilik voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan eng ko'p jinoyatdir. Maqolada o'g'rilik uchun tarixda qo'llanilgan jazolar,

ДРЕВНИЕ НАКАЗАНИЯ ЗА КРАЖУ ДЛЯ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ**Анвар Назаров***Адвокат адвокатского бюро «Law and Case»**Ташкент, Узбекистан**E-mail: ranonazarova741@gmail.com***О СТАТЬЕ**

Ключевые слова: воровство, несовершеннолетние, детская кража, kleptomания, наказание, дисциплинарные меры, пиратство, законы Хаммурапи.	Аннотация: Преступность несовершеннолетних требует организации профилактических мер, основанных на уникальном подходе. К детям, совершившим преступления, чаще применяются воспитательные методы, чем карательные меры, что выражается в медлительности процесса познавательного осмысления происхождения и последствий преступления. Кража – самое распространенное преступление, совершаемое несовершеннолетними. В статье анализируются исторические наказания за кражи, психолого-педагогические и правовые аспекты детских краж.
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

KIRISH

Huquqbuzarliklarga qarshi kurashish tizimining takomillashib borishi barobarida huquqbuzarliklarning deyarli barcha turlari fanlararo keng tahlil va tadqiq qilinib, ularning sonini kamaytirish va oldini olish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish amaliyoti keng joriy qilinmoqda. Ayniqsa, voyaga yetmaganlar tomonidan huquqbuzarliklar profilaktikasini samarali tashkil etish jinoiy tajribaga ega bo'lgan havfli retsidivist jinoyatchilar paydo bo'lishining oldini olishdagi muhim bosqichdir.

Jinoyatning eng keng uchraydigan ko'rinishi o'g'rilik bo'lib, u ba'zi shaxslar uchun jinoiy hayotning boshlanishi yoki tugashini ifoda etadi. O'g'rilik voyaga yetmaganlar tomonidan tez-tez sodir etiladi va ko'pchilik bolalar hayoti davomida bu noqonuniy faoliyatda kamida bir marta qatnashadilar.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 169-moddasining dispozitsiya qismida o'g'rilik jinoyatiga tavsif berilgan bo'lib, unga ko'ra, o'zganing mol-mulkini yashirin ravishda talon-taroj qilish o'g'rilik sifatida baholanadi [1]. Voyaga yetmaganlar deganda esa, "Voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to'g'risida"gi qonunning 3-moddasiga ko'ra, 18 yoshgacha bo'lgan shaxslar nazarda tutiladi [2].

Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etiladigan o'g'rilik uchun odatda uyaltirish, izza qilish, tanbeh berish, tushuntirish kabi intizomiy choralar qo'llanilib, qat'iy qonuniy jazoga tortilmaydi. Bu ba'zi bolalar o'g'rilikni qayta-qayta amalga oshirishiga olib keladi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan ochiq ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda o'g'rilik jinoyatini sodir etganlar soni 9996 kishini (2022-yilda 10417 kishi) tashkil etgan. Ularning 1525 nafarini ayollar (jami o'g'rilik sodir etgan shaxslarning 15,3 % ini), 8441 nafarini erkaklar (jami o'g'rilik sodir etgan shaxslarning 84,7 % ini) tashkil qiladi [3].

Gazeta.uz saytining statistika agentligi hisobotlariga asoslanib e'lon qilgan ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda 3599 nafar voyaga yetmagan (13–17 yoshli) jinoyat sodir etganligi ro'yxatga olingan. Bu o'tgan yilga nisbatan 15,6 foizga (3112 ta) va 2021 yilga nisbatan (2595) 40 foizga ko'pdir. Jinoyat turlari bo'yicha voyaga yetmaganlarning aksariyati, ya'ni 1602 nafari o'g'irlik (bir yil avval – 1581 nafar, 2021-yilda esa 1230 nafari) jinoyati bilan ayblangan [4]. Ushbu statistik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan o'g'rilik jinoyatining soni yildan-yilga oshib bormoqda va bu bolalar bilan birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi darajada profilaktik choralar samaradorligini oshirishni talab etmoqda.

TADQIQOTNING USULLARI

Voyaga yetmaganlar tomonidan o'g'rilik jinoyatining sodir etilishini o'rganishda mavzuga oid pedagogik, falsafiy, huquqiy adabiyotlarni hamda statistik ma'lumotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish va tahlil etish usulidan foydalanildi.

NATIJALAR

Manbalarda voyaga yetmaganlar tomonidan o'g'rilik uchun aniq jazo choralari bayon etilmagan bo'lsa-da, ammo bolalar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar uchun ota-onaning javob berishi haqida ma'lumotlar uchraydi. Masalan, qadimgi Afinada ota o'z bolalari tomonidan, xo'jayin o'z quli tomonidan yetkazilgan mulkiy zarar uchun javobgar bo'lgan, bolalarga kattalar kabi jazolar qo'llanilgan, XVIII asrdan bolalar qiynoqlardan ozod qilina boshlangan [5]. O'g'rilik jinoyatiga qarshi qadim davrlardan boshlab kurashib kelinadi, uning sonini kamaytirish uchun qat'iy va shafqatsiz jazo usullari qo'llanilgani ham tarixiy ma'lumotlarda bayon etilgan. Jumladan, 5200 yil oldin Shumer madaniyatida o'g'rilik uchun jazo belgilovchi maxsus qonunlar mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, ibodatxonadan yoki qirol saroyidan biror mulkni o'g'irlash o'lim bilan jazolangan. Shuningdek, o'g'irlangan narsani sotgan yoki sotib olganlar ham shunday jazoga duch kelishgan. Birovning uyiga o'g'rilikka kirgan odam qo'lga tushsa, o'sha yerda qatl qilingan.

Qadimgi huquqiy manbalarda jazolarni ifodalovchi moddalarning eng ko'pi o'g'rilik jinoyatiga taalluqli bo'lgan. Masalan, Ilan Peled (2019) taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, Eshnunna (ba'zi arxeologik hujjatlarda Ashnunnak yoki Tuplias nomi bilan atalgan) qonunlarining 15 foizini, Xett qonunlarining 29,5 foizini, Ossuriya qonunlarining 20 foizini o'g'rilikka oid

moddalar tashkil qilgan bo'lsa, nisbatan kam foizlarda Xammurapi qonunlarining 9,5 foizida, Ur-Nammu qonunlarining 3,5 foizida uchraydi (p. 21). Bu davrlarda o'g'rilik buyumlarni, uy hayvonlarini, qullarni va ozod shaxslarni o'g'irlashni ifodalagan. Qochgan qullarni yashirish yoki tutib olingan qullarni o'z uyiga qamab qo'yish ham o'g'rilik sifatida baholangan. Yuqoridagi qonunlarga ko'ra, o'g'rilik uchun sanksiyalar turlicha bo'lgan, masalan, Ur-Namma qonunlariga ko'ra, o'g'riga o'n besh kumush shekel miqdorida jarima, Eshnunna qonunlariga ko'ra, qayiqni o'g'irlaganlik uchun o'n kumush shekel jarima belgilangan va kunduzi yoki kechasi, uydin yoki daladan o'g'irlaganiga qarab, jazo chorasi o'zgargan. Xammurapi qonunlarida o'g'rilik uchun o'lim, jarima va kamdan-kam hollarda o'g'rlarning qo'lini kesish kabi jazolar belgilangan [6]. Shuningdek, Xammurapi qonunlariga ko'ra:

- kimdir ibodatxonaga tegishli qoramol, qo'y, eshak, cho'chqa yoki echkini o'g'irlasa, o'g'irlaganlarini o'ttiz barobar qilib qaytaradi. Agar ular ozod shaxsga tegishli bo'lsa, o'n barobar qilib to'laydi; agar o'g'rlarning to'lash uchun hech narsasi bo'lmasa, u o'limga hukm qilinadi;
- agar birovning voyaga yetmagan o'g'rlarini o'g'irlasa, u o'lim jazosiga hukm qilinadi;
- agar kimdir uyga teshik ochsa (o'g'irlash uchun kirsam), u o'sha teshik oldida o'ldirilib, ko'milishi kerak;
- bir shaxs birov bilan o'z dalasini bo'lishishga rozi bo'lsa, unga urug' bersa, bir ho'kiz bo'yinturug'ini ishonib topshirsa va sherik bo'lgan kishi makkajo'xori yoki o'simliklar hosilini o'zi uchun o'g'irlab olsa, uning qo'llari kesiladi;
- agar u odam ho'kiz bo'yinturug'ini o'g'irlab ketsa yoki dalaga hech narsa ekmasdan, makkajo'xori donlarini o'g'irlasa, u sudlanadi va har bir yuz gan uchun oltmish gur don to'laydi;
- kim shadduf (daryo yoki kanaldan suv olish uchun ishlatiladi) yoki omochni o'g'irlasa, uch shekel pul to'laydi;
- agar shahar boshliqlari o'g'rlarini topa olmasalar, o'g'irlangan mol-mulkini qaytarish uchun javobgar bo'ladilar va jabrlangan shaxsga yoki uning merosxo'rlariga o'z hamyonidan tovon puli to'laydilar [7].

Qadimgi Misrda ham o'g'rilik sodir etgan shaxslarga qattiq jazolar qo'llanilgan. Jumladan, biror shaxsning mol-mulkini o'g'irlagan o'g'ridan ikki-uch baravar ko'p miqdorda, jamoat mulkini o'g'irlaganlik uchun o'g'irlangan narsalar miqdorining 180 baravarigacha jarima undirilgan. Avvalo, ayblanuvchining aybi isbotlangan va o'z aybiga to'liq iqror bo'lgandan keyin narsalarni qaytarishga majbur bo'lgan. Shuningdek, jinoyatlar uchun kaltaklash, jarohatlash, qamoqqa olish, timsohlarga tashlash va o'ldirish kabi jazolar qo'llanilib, ular omma oldida amalga oshirilgan.

Qadimgi Yunonistonda (Burnside, 2024, p. 295) jazolar jarima, majburiy mehnat yoki surgun qilish tarzida ham mavjud bo'lgan. Jinoyatning og'irligiga qarab, qamoq yoki qatl qilish

qo'llanilgan. Bu davrda qaroqchilik ham o'g'rilikning bir ko'rinishi bo'lib, shu shaharda yashovchi shaxs o'g'rilik qilsa - o'g'ri, boshqa hududdan kelgan shaxs o'g'rilik qilsa - qaroqchi deb atalgan va qaroqchilarga og'irroq jazo qo'llanilgan [8].

Rim imperiyasida ham o'g'rilik o'lim bilan jazolanishi yoki o'g'irlangan mol-mulkning to'rt-besh barobarini to'lashga hukm qilinishi mumkin bo'lgan, jazoning og'irligi o'g'rilik paytida zo'ravonlik va qurol ishlatishga qarab belgilangan [9]. O'rta asrlarga kelib, o'g'rilik uchun tamg'a bosish, osib o'ldirish va jarohatlash kabi jazolar qo'llanilgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixiy, falsafiy va huquqiy manbasi bo'lmish Avestoda jinoiy xulq-atvor haqida ma'lumotlar uchraydi (Yuldashev & Temirova, 2023, p. 186). Zardushtiyluk huquqiga ko'ra jinoyatlar quyidagi turlarga bo'lingan:

- dinga qarshi jinoyatlar (dinsizlik, boshqa din vakili bilan nikoh qurish, o'z diniy burch va majburiyatlarini bajarmaslik);
- shaxsga qarshi jinoyatlar (zo'ravonlik, birovning hayotiga tahdid qilish, qasddan hujum qilish, shifokor tomonidan boshqalarga zarar yetkazish);
- xulq-atvorga bog'liq jinoyatlar (homilani tushirishga urinish, homilador ayollarga va yosh bolalarga mas'uliyatsizlik va befarqlik qilish);
- hayvonlarga qarshi jinoyatlar (uy hayvonlariga nisbatan zulmli harakatlar qilish, ularni qiynoqqa solish);
- mulkiy jinoyatlar (o'g'rilik, bosqinchilik, firibgarlik, talonchilik, o'zgalar hisobidan yashash, o'zgalar mulkiga zarar yetkazish);
- axloqqa qarshi jinoyatlar (bir jinsli nikoh, fohishalik, xiyonat qilish, axloqsiz va g'ayritabiiy harakatlar qilish);
- tabiat bilan bog'liq jinoyatlar (yer, suv, havo, olovga zarar yetkazish, ifloslantirish yoki yo'q qilish) [10].

Shuningdek, "Avesto" da o'g'rilik va mol-mulkka tahdid qilish haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Huquqshunos olim Imamov N.ning taqdim etgan ma'lumotlariga ko'ra, "Avesto"da mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish mukammal darajada himoya qilinmagan bo'lsa-da, mulkka suiqasd qilish jinoyat sifatida baholanib, ma'lum jazo choralari belgilangan. "Avesto"ga ko'ra, mulkni o'g'irlanganlik uchun nafaqat o'g'rining shaxsiy mulki, balki butun qabila "vis" ning mulki ham musodara qilingan va ular "La'natlaymiz, o'g'rilar va qaroqchilar halok bo'lsin" deya la'natlangan. Qabilaning bir a'zosini qilmishi uchun butun qabila javob bergan [11]. Jahon urushlaridan so'ng yetimlik, ochlik va nazoratsizlik oqibatida bolalar tomonidan huquqbuzarliklar sonining keskin oshib ketishi natijasida hukumatlar voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi masalasiga alohida e'tibor qarata boshladi.

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, o'g'rilikka qarshi barcha davrlarda va barcha hududlarda keng ko'lamli choralar va qat'iy jazolar qo'llanilganiga qaramay, bu jinoyat hamon jamiyat va davlatning tinchligiga tahdid soluvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda.

MUHOKAMA

Voyaga yetmaganlar o'g'riligining o'ziga xos jihatlari. Ko'pgina voyaga yetmaganlar uchun o'g'irlik bolalikda bir marta sodir etilib, qayta takrorlanmaydigan alohida hodisadir. Ammo ba'zi bir yoshlar uchun u jinoiy turmush tarzining boshlanish qismi bo'lishi ham mumkin. Aksariyat bolalar o'g'irlik noto'g'ri ekanligini bilishadi, lekin ular o'zlarining sarosimalari va noroziliklarini ochiq ifoda etish usuli sifatida o'g'irlik qilishadi.

Bolalar o'g'riligi turli soha mutaxassislari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Psixolog Z.Axmedova bolalar o'g'riligining yoshga doir xususiyatlarini tahlil qilib, uni ruhiy og'ish deb baholaydi. Uning fikriga ko'ra, har bir yoshda o'g'rilikning o'z sabablari bor:

- biror narsaga ega bo'lish istagining kuchliligi. Bola maktabgacha yoki kichik maktab yoshida o'rtog'ida yoki aka-ukalarida mavjud bo'lgan buyumni o'ziniki qilib olishni qattiq xohlagani uchun uni o'g'irlab oladi. Bu ehtiyojlarning qondirilmasligi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

- Yaqinlariga sovg'a qilish istagining kuchliligi. Bola o'g'irlagan narsalarini o'zida bo'lishini xohlamaydi, u yaqinlariga sovg'a qilib, ularning e'tibori va mehrini qozonishni niyat qiladi. Bu bolaga e'tibor yetishmayotganligi belgisi bo'lishi mumkin.

- Tan olinish ehtiyojining kuchliligi. Bola narsalarni o'g'irlab, uni o'ziniki qilib ko'rsatishga va atrofidagilarning e'tibori va e'tirofiga sazovor bo'lishga harakat qiladi. Bu holat aksariyat hollarda o'rtoqlari tomonidan tan olinmayotgan va ajratilayotgan bolalar tomonidan sodir etiladi.

- Bola buyum egasini jazolash yoki o'ch olish maqsadida shu buyumni o'g'irlab olishi mumkin.

- 8-11 yoshlarda irodasizlik oqibatida o'g'irlik sodir etish. O'z irodasidan xohishlarning ustun kelishi yoki o'zgalarga "yo'q" deb ayta olmaslik natijasida amalga oshiriladi.

- 12-15 yoshlarda sodir etilgan o'g'irlik ongli tarzda oqibatlarini tushungan holda amalga oshiriladi [12].

Tadqiqotchilar B.Buzsik va K.Foila bolalar o'g'riligining kleptomaniya kasalligi (odatda shaxsiy foydalanish yoki moliyaviy manfaatlardan tashqari boshqa sabablarga ko'ra narsalarni o'g'irlash istagiga qarshi tura olmaslik [13]) bilan bog'liq ekanligini tadqiq etishgan. Ularning fikricha, 4-5 yoshli bolalarda o'zgalarga tegishli bo'lgan buyumlarni o'g'irlash amaliyoti rivojlanadi (Buzsik & Foila, 2023, p. 6). Tadqiqotchilar kleptomaniyaga duchor bo'lgan bolalarda serotonin darajasi past bo'lishini aniqladilar, o'g'irlikdan so'ng ushbu bolalarda tashvish hissining

o'rniga quvonch va baxt hissi oshganini hamda serotonin darajasi ko'tarilganining guvohi bo'ldilar. Shuningdek, ular kleptomaniya va bosh miya jarohatlari o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, ular o'rtasida bog'liqlik mavjud emas degan xulosaga keldilar [14]. Boshqa tadqiqotchilar (Grant, J.E., & Chamberlain, 2020, p. 289) kleptomaniya oilaviy kelib chiqish va ruhiy salomatlikning buzilishidan kelib chiqishini aniqladilar [15].

2001-yilda Vashingtondagi tibbiyot instituti olimlari o'tkazgan tadqiqotlarga ko'ra, bolalik davridagi bir qancha ruhiy kasalliklar kelajakdagi huquqbuzarliklar uchun xavf tug'diradi. Bolalar kichik yoshlarida axloqbuzarlik sodir etishi, ya'ni yolg'on gapirishi, haqorat qilishi, hayvonlarga shafqatsiz munosabatda bo'lishi, janjallashishi, darsdan qochishi va boshqalar natijasida huquqbuzarlikka moyil bo'lib qolishadi. Shuningdek, ular xomiladorlik davrining keyinchalik bola huquqbuzarligiga ta'sirini o'rganishdi hamda xomila yetti oygacha rivojlanish davrida ona va boladagi nevrologik patologiya, bolaning erta tug'ilishi natijasida yuz beradigan buzilishlar qisman bolalar huquqbuzarligiga olib keladi degan xulosaga kelishdi [16]. Bunday bolalarda deviant xulqning yuzaga kelishi ular ulg'ayadigan ijtimoiy muhitga ko'proq bog'liqligi isbotlangan.

Pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilinganda, bolalar huquqbuzarligi oiladagi tarbiya usulining noto'g'riligi, ota-onalarning pedagogik o'quvsizligi, bolaning darslarni o'zlashtirishdan ortda qolishi, bolaning nazoratsizligi, oilada huquqbuzar kattalarga taqlid qilinishi natijasida kelib chiqadi. Bolaning dastlab o'yinchoqlar yoki boshqa buyumlarni o'g'irlashiga ota-onaning beparvoligi yoki, aksincha, maqtashi natijasida o'g'rilikka moyillikning ortishi kuzatiladi.

Huquqiy jihatdan o'g'rilik jinoyat hisoblanadi hamda voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan o'g'rilik ham O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi. Umumiy asoslarga ko'ra, voyaga yetmaganlarga jarima, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi. Mazkur kodeksning 86-moddasiga ko'ra, sud voyaga yetmaganlarga jazo tayinlashda jazo tayinlashning umumiy asoslariga amal qiladi, voyaga yetmaganning rivojlanganlik darajasi, turmush sharoiti va tarbiyasini, sog'lig'ini, sodir etgan jinoyatining sabablarini, katta yoshdagilarning va boshqa holatlarning uning shaxsiga ta'sirini hisobga oladi [1]. Shuningdek, bolalar bilan ishlovchi tashkilotlar hamda mutaxassislar ikkilamchi profilaktika va rehabilitatsiya ishlariga jalb qilinishi mumkin.

XULOSA

O'g'rilik voyaga yetmaganlar tomonidan eng ko'p sodir etiladigan jinoyatlardan biridir. Turli soha vakillari bu fenomenni tahlil qilib, uni jinoyat, illat, kattalardan namuna, ruhiy buzilish, tarbiyasizlik yoki irsiy xususiyat sifatida tahlil qilib kelmoqdalar. Bolaning ushbu jinoyatni sodir etishi bir qancha omillarga bog'liq bo'lishi mumkin va ularning har biri o'z o'rnida asoslidir.

Taklif va tavsiyalar. Mavzuni tadqiq qilish natijasida quyidagi tavsiyalarni taqdim etish maqsadga muvofiq deb topildi:

- o‘g‘rilik sodir etgan voyaga yetmaganlar xulqidagi buzilishlarni kriminologik tadqiqotlar asosida o‘rganish;

- ota-onalarning pedagogik savodxonligini oshirish, ota-ona va farzand munosabatlarini mustahkamlash, bolalarni tarbiyalash va parvarish qilish borasidagi bilimlarini oshirish choralari ko‘rish. Buning uchun nikohdan oldingi o‘quv mashg‘ulotlariga bolalar huquqbuzarligida ota-onalarning roli mavzusida trening mashg‘ulotlarini qo‘shish;

- huquqbuzarlik sodir etgan bolalarning oilaviy holatini o‘rganish va zarur hollarda ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish vazifasini mahallalardagi ijtimoiy ishchi tomonidan bajarilishini yo‘lga qo‘yish.

- ijtimoiy jihatdan xavfli ahvolda bo‘lgan oilalarga yordam ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. URL: <https://lex.uz/mact/-111453>.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Voyaga yetmaganlar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi to‘g‘risida”gi qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-1685726>.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ochiq ma‘lumotlari. URL: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2>.
4. Gazeta.uz sayti. O‘zbekistonda voyaga yetmaganlar o‘rtasida sodir etilgan jinoyatlar besh yil ichida 4,4 barobarga oshgan. URL: <https://www.gazeta.uz/ru/2024/02/26/youth-crime/>.
5. Muhamedov H.M. Huquq tarixi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / Haydarali Muhamedov. – T.: TDYU nashriyoti, 2023. – 105-b.
6. Ilan Peled. Delict in the Law Compendia of Mesopotamia and Hatti: Qualitative and Quantitative Analyses. Journal for Semitics. URL: <https://upjournals.co.za/index.php/JSEM>. Volume 28, Number 1, 2019. P.21.
7. James Ware. University of Houston. URL: <https://www.quora.com/What-was-the-punishment-for-robbery-in-ancient-times>.
8. Burnside, Jonathan, 'Theft And Burglary', *God, Justice, and Society: Aspects of Law and Legality in the Bible* (2010; online edn, Oxford Academic, 1 Jan. 2011), <https://doi.org/10.1093/acprof:oso/9780199759217.003.0009>, accessed 1 Nov. 2024. P. 295.
9. Liubov Ben-Nun. Stealing from Ancient times to the Present. 2018. https://www.researchgate.net/publication/322552160_STEALING_FROM_ANCIENT_TIMES_TO_THE_PRESENT.

10. Yuldashev B., Temirova S. American Journal of Pedagogical and Educational Research ISSN (E): 2832-9791| Volume 11, | April 2023. P. 186.

11. Имамов, Н. Ф. Авеста — источник гражданского права / Н. Ф. Имамов. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2014. — № 5 (64). — С. 353-355. — URL: <https://moluch.ru/archive/64/8234/>.

12. Z. Ahmedova. Bolalar o'g'riligi. URL: <https://doktorzebiniso.uz/psixologiya/tpost/suz241r901-bolalar-ogriligi>.

13. Kleptomania. Wikipedia ochiq ensiklopediyasi. URL: <https://en.wikipedia.org/wiki/Kleptomania>.

14. Birnabas Buzsik, Klainheisler Foila. 2023. The Emergence of Kleptomania in Children and How to Cope with Therapy. *Interdisciplinary Journal Papier Human Review* 2(1): P.1-6.

15. Grant, J.E., & Chamberlain, S. R. (2020). Family history of substance use disorders: Significance for mental health in young adults who gamble. *Journal of behavioral addictions*, 9(2), P.289-297.

16. "The Development of Delinquency". National Research Council and Institute of Medicine. 2001. *Juvenile Crime, Juvenile Justice*. Washington, DC: The National Academies Press. doi: 10.17226/9747.